



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

**“Davlat bayrog‘i kuni”ga bag‘ishlangan “Yangi nafas” hamda
“Konstitutsiya kuni”ga bag‘ishlangan “Ekiden” xalqaro ommaviy
yugurish musobaqalarini yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazishga
amaliy yordam ko‘rsatish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining “Davlat bayrog‘i kuni”ga bag‘ishlangan “Yangi nafas” hamda “Konstitutsiya kuni”ga bag‘ishlangan “Ekiden” xalqaro ommaviy yugurish musobaqalarini yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida” 2023-yil 19-oktabrdagi 80-son bayonida belgilangan topshiriqlarni bajarish maqsadida **buyuraman:**

1. Ta’lim sohasida islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi Kengashining 2023-yil 27-oktabrdagi 8-sonli bayonida “Davlat bayrog‘i kuni”ga bag‘ishlangan “Yangi nafas” hamda “Konstitutsiya kuni”ga bag‘ishlangan “Ekiden” xalqaro ommaviy yugurish musobaqalarini yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazishga amaliy yordam ko‘rsatish” bo‘yicha 1,0 (bir) milliard so‘m miqdoridagi mablag‘ ajratish masalasi yuzasidan jamg‘armaning tegishli qarori qabul qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ta’lim sohasida islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish bo‘limi (I. Xoliqulov) O‘zbekiston yengil atletika federatsiyasi tomonidan taqdim etilgan talabnomalarga muvofiq tegishli xarajatlarni o‘z vaqtida moliyalashtirishni ta’minlasin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

2023-yil 19-noyabr kuni “Davlat bayrog‘i kuni”ga bag‘ishlangan “Yangi nafas” xalqaro ommaviy yugurish musobaqalari Respublikaning 16 ta (Andijon, Namangan, Farg‘ona, Nurafshon, Navoiy, Guliston, Jizzax, Samarqand, Termiz, Buxoro, Qarshi, Xiva, Nukus va Toshkent shaharlari hamda Qorovulbozor va G‘uzor tumanlari) tuman va shaharlarida;

2023-йил 10-декабр кuni Toshkent shahrida “Konstitutsiya kuni”ga bag‘ishlangan “Ekiden” ommaviy yugurish musobaqalari o‘tkazilishini inobatga olsin.

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining hududiy boshqarmalari bilan hamkorlikda mazkur musobaqalarda ishtirok etish istagi yuqori bo‘lgan umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarini barcha xavfsizlik choralarini qo‘llagan holda jalb qilish choralarini ko‘rsin.

4. Devonxona (D. Isxakova) ushbu buyruqni bir kun muddatda vazirlikning hududiy boshqarmalariga yetkazilishini ta‘minlasin.

5 Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari D. Kenjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X. Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil “1” noyabr,
529-son